

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## O‘XSHATISH QURILMALARINING TURLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Mumtozbeginim Abduolimova**

*1-kurs doktorant, Farg‘ona davlat universiteti*

*E-mail: [mumtozbeginim9722@gmail.com](mailto:mumtozbeginim9722@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Navoiy g‘azallarida qo‘llangan o‘xshatish qurilmalarining turlari xususida fikr yuritilgan. Konkret va abstrakt, an‘anaviy va individual o‘xshatishlar yuzasidan tahlillar keltirilgan. Navoiy g‘azallarida o‘xshatish uch xil grammatik vosita yordamida shakllanishi va ularning o‘xshatish qurilmalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari teng emasligi haqida ma‘lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘xshatish belgisi, o‘xshatish asosi, kengaytirilgan o‘xshatish, konkret o‘xshatish, abstrakt o‘xshatish, an‘anaviy o‘xshatish, individual o‘xshatish.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются виды сравнений, используемые в газелях Навои. Представлен анализ конкретных и абстрактных, традиционных и индивидуальных сравнений. В газелях Навои сравнения образуются с помощью трех разных грамматических приемов и приводятся сведения об их неравных возможностях в образовании сравнительных приемов.*

**Ключевые слова:** *Символ сравнения, основа сравнения, расширенное сравнение, конкретное сравнение, абстрактное сравнение, традиционное сравнение, индивидуальное сравнение.*

**Abstract:** *This article discusses the types of similes used in Navoi's ghazals. Analyzes of concrete and abstract, traditional and individual similes are presented. In Navoi's ghazals, similes are formed with the help of three different grammatical devices and information is provided about their unequal possibilities in forming simile devices.*

**Keywords:** *Symbol of simile, basis of simile, extended simile, concrete simile, abstract simile, traditional simile, individual simile.*

O‘xshatishlar yuzaga kelish asoslariga, badiiy adabiyot tilida qo‘llanishiga, ma‘nolariga, komponentlarining tarkibiga ko‘ra bir necha guruhlarga bo‘linadi. O‘xshatishlarning hammasi sezgilar va tasavvurlar orqali yuzaga keladi. Shu jihatdan o‘xshatishlar, avvalo, ikki katta guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruh o‘xshatishlar sezgilarga asoslanadi va real bo‘lgan predmet, hodisalar qiyoslanadi. Bunday o‘xshatishlarni shartli ravishda konkret o‘xshatishlar deb nomlangan. Konkret o‘xshatishlar sezgilarga asoslanganligi uchun tabiatda bunday o‘xshashlikning mavjudligiga ishonish mumkin. Ya‘ni kishining aqli bovar eta oladi. [2.25].

**Konkret** o‘xshatishlar ko‘rish, eshitish, hid bilish, maza-ta‘m va teri-tuyg‘u sezgi organlarining biri asosida yuzaga keladi.

### **1. Ko‘rish organi orqali yuzaga kelgan o‘xshatishlar:**

*Alarg‘a oshkoro-yu nihoni, Ko‘z ichra ashkdek asratqil oni (F.Sh).*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## 2. *Eshitish organi orqali yuzaga kelgan o‘xshatishlar:*

*Choparda quyrug‘in aylab alam ul, Qulog‘idek ayog‘din-bosh qalam ul (F.Sh) [1. 23-40].*

## 3. *Hid bilish sezgisi orqali yuzaga kelgan o‘xshatishlar:*

*Dimog‘ida burunkim quvvat erdi, Tanida dog‘i zoru sihat erdi (F.Sh).*

## 4. *Maza-ta‘m bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:*

*Tuzub bazm ul kecha ham komu nokom, Ichib achchiqqa-chchiq bir necha jom (F.Sh).*

## 5. *Teri-tuyg‘u organiga bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:*

*Ichinda sham‘ o‘tluq joni ma‘yus, Teri birla so‘ngok andoqki fonus (F.Sh).*

Ikkinchi guruh o‘xshatishlar tasavvurlar asosida yuzaga chiqadi. Bunday o‘xshatishlarni shartli ravishda abstrakt o‘xshatishlar deb ataladi. **Abstrakt** o‘xshatishlar biror kishining nazarida, xayolida yoki tasavvurida ro‘y beradi. Aslida esa bunday o‘xshatishlar tabiatdagi narsa va hodisalarda bo‘lmaydi. Bularda fantaziya, mubolag‘a ustun bo‘ladi. Abstrakt o‘xshatishlar ko‘pincha, *nazarida, aylanmoq, eslatmoq, go‘yo, bo‘lub, bo‘yla* so‘zlari bilan ifodalanadi [2.27].

### a) *Go‘yo so‘zi bilan:*

*Bu yon go‘yoki surmishdur takovarki, gardidin ko‘runmas mehri xovar (F.Sh).*

### b) *Bo‘lub so‘zi bilan:*

*Bo‘lub zoyil taarruz ehtimoli, Oyog‘i sustayib, sa‘b o‘ldi holi (F.Sh).*

### c) *Bo‘yla so‘zi bilan:*

*Urub yuzga nadomat ashkidin suv, Magar ketgay ko‘zungdin bo‘yla uyqu (F.Sh).*

Ko‘rinadiki yuqoridagi abstrakt o‘xshatishlarda narsa va hodisalar bir-biriga real holda qiyoslanmagan. Ularda mubolag‘a va fantaziyaning ustunligi sezilib turibdi.

Umuman konkret o‘xshatishlar sezgilarga asoslanib, o‘zlarining haqqoniyligi, realligi, hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Ular ko‘pincha tasvirlanayotgan obrazning biror belgi xususiyatini chog‘ishtirgani uchun bularda obrazlilik, emotsional-ekspressivlik kuchli bo‘ladi. Abstrakt o‘xshatishlarda narsa va hodisalarning umumiy xususiyati biror shaxsning tasavvurida mubolag‘a asosida o‘xshatiladi, aslida esa narsa va hodisalar o‘rtasida bunday o‘xshashlik bo‘lmaydi.

Badiiy adabiyot tilidagi o‘xshatishlar qo‘llanish jihatdan ikki guruhga bo‘linadi:

**1) an‘anaviy (traditsion) o‘xshatishlar; 2) individual o‘xshatishlar [2. 25-27].**

1. An‘anaviy o‘xshatishlar xalqning jonli-so‘zlashuv nutqidagi o‘xshatishlar bo‘lib, ular yozuvchi tomonidan o‘zgartirilmagani holda badiiy asar tiliga olib kiriladi. Ularda ta‘sirchanlik, konkretlik xususiyatlari yaqqol gavdalanmaydi. Bunday o‘xshatishlar kundalik nutqda ishlatilaverishi orqali o‘zining obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatlarini yo‘qotgan bo‘ladi.



# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

A.F.Yefremov badiiy asar tilidagi o‘xshatishlarni o‘rganishga oid maqolasida shu narsaga e’tibor berib, rus tilining jonli-so‘zlashuv nutqida qo‘llanadigan o‘xshatishlarni “stereotip o‘xshatishlar” termini bilan nomlagan [2.27]. *Yuzi ul mujdadin guldek ochildi, Qo‘pub mehmonsarog‘a azm qildi (F.Sh).*

2. Individual o‘xshatishlar deb yozuvchining xalq tilidan mohirona foydalanishi orqali qo‘llangan o‘xshatishlarga aytiladi. Ularda emotsional-ekspressivlik, obrazlilik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Badiiy asar tilida bunday o‘xshatishlar, ko‘pincha, muallif nutqi orqali beriladi va o‘zining originalligi, konkretligi hamda kitobxon xayolida yo‘qligi bilan ajralib turadi.

Umuman, individual o‘xshatishda obrazlilik bilan emotsionallik o‘zaro bog‘langan aniq obrazda kuchli emotsiya bo‘ladi. Individual o‘xshatishlar yozuvchi tomonidan hayotiy haqiqatlarni sinchiklab tekshirishlari orqali ro‘yobga chiqadi hamda tasvirlanayotgan obyektning nursiz, qorong‘u, mavhum tomonlari kitobxon xayolida reallashadi, tiniqlashadi: *Qoshim mehrobini yod aylagan dam, Yangi oydek bo‘lurmu qomating xamg‘ (F.Sh).*

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, adabiy tilda qo‘llangan o‘xshatishlar ijobiy va salbiy ma’nolari bilan ham farqlanadi. Ijobiy ma’noli o‘xshatishlar badiiy asardagi ijobiy qahramonlar portreti, harakterida beriladi. Ularning muhim bir belgi, xususiyati oy, quyosh, mevali daraxtlar va boshqa narsa, hodisalarning ijobiy belgi, xususiyatiga qiyoslanadi. Salbiy personajlar esa hayotdagi zararli, yoqimsiz narsalarga o‘xshatiladi. O‘xshatishlarning ijobiy va salbiy ma’no anglatishida ularning qiyoslanish obyektlari muhim rol o‘ynaydi.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.
2. Мукаппамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Т.: Фан, 1976, 88 б.
3. Umarova N.R., Abduolimova M.A. Dunyo tilshunosligida o‘xshatish konstruksiyalariga munosabat. Volume 02, Issue:10 Journal of Advanced Research and Stability. 12.10.2022. [www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz) 128-131-bet.
4. Umarova N.R., Abduolimova M.A. Alisher Navoiy she’riyatida o‘xshatish qurilmalari. FarDU ilmiy xabarlar 4-son 14.11.2022 [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz) DOI: 10.56292/SJFSU/vol28\_iss4/a37. 170-173-bet.
5. Umarova N.R., Abduolimova M.A. O‘xshatish konstruksiyalarining o‘rganilish tarixi. “Filologiyaning dolzarb muammolari va uning innovatsion yechimlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Farg‘ona 12.12.2022. 539-545-bet.
6. Umarova N.R., Abduolimova M.A. The importance of similar devices in Alisher Navoi’s poetry. Volume 9 (06.2022) Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences [www.geniusjournals.org](http://www.geniusjournals.org) 68-71-bet.

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

7. Umarova N.R., Abduolimova M.A. In the gazelles of Navoi article images. Volume17, (2.06.2022) International Journal of Culture and Modernity <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm> 61-66-bet.
8. Umarova N.R., Abduolimova M.A. Lisoniy vositalarning semiotik va antroposentrik tadqiqi. Filologiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Farg‘ona (11.05. 2022) <https://doi.org/10.5281/zenodo.6528801> 149-152-bet.
9. Umarova N.R., Abduolimova M.A. O‘xshatish konstruktsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari. “Oriental Art and Culture” ilmiy-uslubiy jurnali 3-son Qo‘qon-2020. 347-351-bet.